



# E CONF SERIES



**International Conference on Economics, Finance, Banking and Management**

**Hosted online from Paris, France**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

24<sup>th</sup> April, 2025

## **HOZIRGI KUNDA O'ZBEKISTONDA MENEJMENT AMALIYOTI: MUAMMOLAR VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI**

### **ПРЕИМУЩЕСТВА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ УМНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ СЕГОДНЯ**

#### **ADVANTAGES OF USING SMART TECHNOLOGIES TODAY**

Karimov Eldor Erkinovich

Oriental universiteti magistranti

#### **Annotatsiya:**

Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida menejment amaliyotining hozirgi holati, mavjud muammolari va rivojlanish istiqbollari tahlil qilinadi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida boshqaruv tizimining yangilanishi, davlat va xususiy sektor o'rtaqidagi hamkorlik, shuningdek, raqamli texnologiyalarni joriy etish kabi omillar menejment sohasining rivojlanishiga zamin yaratmoqda. Shu bilan birga, ilmiy asoslangan boshqaruv konsepsiyalarining yetishmasligi, kadrlar malakasining pastligi, byurokratik to'siqlar va innovatsion yondashuvlarning sekin joriy qilinishi kabi muammolar ham mavjud. Maqolada zamonaviy menejment yondashuvlari, xorijiy tajribalar, shuningdek, O'zbekistonda milliy menejment modelini shakllantirish zarurati haqida fikr yuritiladi.

#### **Аннотация:**

В статье анализируется современное состояние, существующие проблемы и перспективы развития управленческой практики в Республике Узбекистан. В условиях перехода к рыночной экономике такие факторы, как модернизация системы управления, сотрудничество государственного и частного секторов, а также внедрение цифровых технологий создают основу для развития сферы управления. В то же время существуют и такие проблемы, как отсутствие научно обоснованных концепций управления, низкая квалификация персонала, бюрократические препоны и медленное внедрение инновационных



# E CONF SERIES



**International Conference on Economics, Finance, Banking and Management**

**Hosted online from Paris, France**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

**24<sup>th</sup> April, 2025**

подходов. В статье рассматриваются современные подходы к управлению, зарубежный опыт, а также необходимость формирования национальной модели управления в Узбекистане.

## **Annotation:**

This article analyzes the current state, existing problems and development prospects of management practice in the Republic of Uzbekistan. During the transition to a market economy, factors such as the modernization of the management system, cooperation between the public and private sectors, as well as the introduction of digital technologies are creating the basis for the development of the management sector. At the same time, there are also problems such as the lack of scientifically based management concepts, low personnel qualifications, bureaucratic obstacles and the slow introduction of innovative approaches. The article discusses modern management approaches, foreign experience, as well as the need to form a national management model in Uzbekistan.

**Kalit so‘zlar:** Menejment, boshqaruv tizimi, O‘zbekiston, rivojlanish istiqbollari, muammolar, innovatsion menejment, davlat boshqaruvi, strategik rejalashtirish, iqtisodiy islohotlar.

**Ключевые слова:** Менеджмент, система управления, Узбекистан, перспективы развития, проблемы, инновационный менеджмент, государственное управление, стратегическое планирование, экономические реформы.

**Keywords:** Management, management system, Uzbekistan, development prospects, problems, innovative management, public administration, strategic planning, economic reforms.

## **Kirish**

Bugungi globallashuv va raqobat muhitida har bir davlatning taraqqiyoti, ayniqsa, iqtisodiy barqarorligi samarali boshqaruv tizimiga bevosita bog‘liqdir. O‘zbekiston



# E CONF SERIES



**International Conference on Economics, Finance, Banking and Management**

**Hosted online from Paris, France**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

24<sup>th</sup> April, 2025

Respublikasi mustaqillik yillaridan boshlab boshqaruv sohasida izchil islohotlar olib borib, menejmentning zamonaviy shakllarini joriy etishga katta e'tibor qaratmoqda. So'nggi yillarda raqamli texnologiyalarni joriy etish, davlat va xususiy sektor o'rtaqidagi hamkorlikni kuchaytirish, hamda inson kapitaliga asoslangan strategiyalarni ishlab chiqish orqali menejment amaliyotining yangi bosqichi shakllanmoqda. Shu bilan birga, ushbu yo'nalishda hali ham yechimini kutayotgan muammolar mavjud bo'lib, ularni bartaraf etish va ilg'or tajribalarni qo'llash orqali rivojlanish istiqbollarini belgilash zaruriyati ortib bormoqda. Ushbu maqolada aynan shu masalalar chuqur tahlil qilinadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur ilmiy maqolani yozishda tizimli tahlil, solishtirma tahlil, statistik ma'lumotlar asosida umumlashtirish, induktiv va deduktiv yondashuvlar kabi ilmiy metodlardan foydalanildi. O'zbekiston Respublikasida menejment tizimining rivojlanish holati, mavjud muammolar va ularning sabablari amaliy misollar hamda mavjud qonunchilik hujjatlari asosida o'rGANildi. Shuningdek, ilg'or xorijiy tajribalarga tayanilgan holda O'zbekiston sharoitiga mos keluvchi menejment strategiyalari va takliflar ishlab chiqildi. Tadqiqot jarayonida **normativ-huquqiy hujjatlar, statistik ma'lumotlar, rivojlanish dasturlari, hamda xalqaro tahliliy hisobotlar** asosiy manba sifatida xizmat qildi.[1]

Menejment sohasida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda boshqaruv tizimining modernizatsiyasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda. Jumladan, I. Abdullayevning "Zamonaviy boshqaruv tizimlari" nomli asarida menejmentning asosiy nazariy qarashlari va O'zbekistondagi amaliy yondashuvlari chuqur tahlil etilgan. Muallif innovatsion texnologiyalarni joriy qilish va kadrlar malakasini oshirish zaruriyatini ta'kidlaydi. M. Mamadaliev va G. Saidova kabi tadqiqotchilar esa o'z asarlarida O'zbekistonda menejmentning milliy modeli qanday shakllanishi, mavjud muammolar — jumladan, byurokratiya, axborot oqimining sustligi, resurslardan samarasiz foydalanish — haqida fikr yuritadilar.[2]

Shuningdek, Prezident farmonlari, qarorlari va Davlat dasturlarida (masalan, "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi") davlat boshqaruvini samarali tashkil etish, raqamli transformatsiyani kengaytirish, xususiy sektorni qo'llab-quvvatlash bo'yicha strategik vazifalar belgilangani bu



# E CONF SERIES



**International Conference on Economics, Finance, Banking and Management**

**Hosted online from Paris, France**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

24<sup>th</sup> April, 2025

yo‘nalishdagi adabiy bazani boyitadi.

Xalqaro miqyosda esa P. Drucker, H. Mintzberg, va K. Koontz kabi klassik menejment nazariyotchilarining asarlari O‘zbekiston tajribasi bilan solishtirilib o‘rganilmoqda. Ayniqsa, Peter Drucker’ning “Management: Tasks, Responsibilities, Practices” kitobi boshqaruvning strategik funksiyalari haqida chuqur tahlil beruvchi manba hisoblanadi.

Tahlil qilingan adabiyotlar asosida shuni ta’kidlash joizki, menejment sohasida nazariy va amaliy ishlanmalar mavjud bo‘lsa-da, ularni O‘zbekiston sharoitiga moslashtirish va amaliyatga tadbiq etishda tizimli yondashuv yetarli emas. Shu sababli, ilmiy izlanishlar davom ettirilishi va menejment madaniyatini yuksaltirish bo‘yicha yangi ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqilishi zarur.

O‘zbekistonning menejment amaliyoti, iqtisodiy islohotlar va global iqtisodiyotga integratsiya jarayonlari natijasida rivojlanmoqda. Yangi qonunchilik, raqamli texnologiyalar, kadrlar malakasini oshirish va davlat-xususiy sektor hamkorligi kabi sohalarda amalga oshirilgan islohotlar menejmentning samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Biroq, bu jarayonlar bir qator muammolarni ham o‘zida aks ettiradi.

1. Kadrlar malakasi va ta’lim tizimi: O‘zbekistonda menejment sohasidagi kadrlar tayyorlash tizimi sezilarli darajada rivojlanayotgan bo‘lsa-da, hali ham yuqori malakali menejerlar yetishmasligi kuzatilmoqda. Mavjud ta’lim tizimi amaliyot bilan yetarlicha bog‘lanmagan, va bu boshqaruv jarayonlarini sekinlashtirishi mumkin. Menejment bo‘yicha xalqaro standartlarga mos kadrlar tayyorlash va malaka oshirish dasturlari muhim ahamiyatga ega.

2. Davlat-xususiy sektor hamkorligi: Davlat va xususiy sektor o‘rtasida hamkorlikning kuchayishi iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga turki bo‘lishi mumkin. Biroq, davlat tomonidan xususiy sektorga qo‘yilgan to‘siqlar, ayniqsa, ba’zi qonuniy cheklovlar va byurokratik muammolar, xususiy biznesning rivojlanishiga to‘sinqinlik qilmoqda. Bu, o‘z navbatida, menejment tizimining samarali ishlashini cheklaydi.

3. Innovatsion texnologiyalar va raqamli menejment: Texnologiyaning tez rivojlanishi, ayniqsa, raqamli menejment, sun’iy intellekt va katta ma'lumotlar (Big Data) sohalaridagi o‘zgarishlar menejment jarayonlarini yanada samarali qilishga



# E CONF SERIES



**International Conference on Economics, Finance, Banking and Management**

**Hosted online from Paris, France**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

24<sup>th</sup> April, 2025

imkon beradi. O‘zbekiston ko‘plab kompaniyalar va davlat organlarida ERP tizimlari, elektron hujjat aylanishi va raqamli boshqaruvni tatbiq etmoqda. Biroq, bu jarayonlar hali ham sekin va ko‘plab tashkilotlar uchun katta o‘zgarishlarni amalga oshirish qiyin bo‘lmoqda.

4. Byurokratik to‘sqliar: Byurokratik to‘sqliar va davlat organlaridagi ortiqcha qadamlar menejmentning samaradorligini pasaytiradi. Ishlab chiqarish va biznes jarayonlarida yuqori darajadagi byurokratiya kompaniyalarni o‘z ishlarini tez va samarali bajarishda to‘sqinlik qilmoqda. Shuningdek, davlat tomonidan ko‘rsatilgan imtiyozlar va qo‘llab-quvvatlashning hali ham cheklanganligi bu muammoni yanada kuchaytiradi.

5. Strategik boshqaruvning joriy etilishi: Strategik boshqaruv tizimlari ko‘plab yirik kompaniyalar va tashkilotlar tomonidan tatbiq etilmoqda, ammo kichik va o‘rta biznesda strategik yondashuvlar hali ham kam uchraydi. Boshqaruvni strategik yo‘nalishda takomillashtirish, uzoq muddatli rejalashtirish va resurslarni samarali taqsimlashga alohida e’tibor qaratish zarur.

## Xulosa:

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda menejment amaliyoti so‘nggi yillarda jadal rivojlanib, yangi bosqichga ko‘tarilmoqda. Davlat boshqaruvida ochiqlik va shaffoflikka asoslangan yondashuvlar, raqamli texnologiyalarini joriy etish va inson kapitaliga asoslangan boshqaruv modellari bu boradagi yutuqlar sirasiga kiradi. Shu bilan birga, mavjud muammolar – jumladan, malakali kadrlar yetishmasligi, byurokratik to‘sqliar, zamonaviy boshqaruv texnologiyalarini amaliyotda to‘liq qo‘llashdagi sustkashliklar – rivojlanishga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

- Menejment amaliyotini takomillashtirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur:

- Menejerlar malakasini muntazam oshirish va xalqaro tajribalarni o‘rganish;
- Innovatsion boshqaruv uslublarini keng joriy etish;
- Xususiy sektor bilan davlat sektorining samarali hamkorligini yo‘lga qo‘yish;
- Strategik rejalashtirish va monitoring tizimini kuchaytirish.

O‘zbekiston iqtisodiyoti, ayniqsa so‘nggi yillarda amalga oshirilgan islohotlar tufayli o‘sish jarayonida. Bu o‘sishga boshqaruvning zamonaviy uslublarini qo‘llash



# E CONF SERIES



**International Conference on Economics, Finance, Banking and Management**

**Hosted online from Paris, France**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

24<sup>th</sup> April, 2025

va menejment tizimini rivojlantirish katta ta'sir ko'rsatmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yildagi qaroriga binoan iqtisodiyotning ochiqligi va raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayonlar menejment amaliyotini, boshqaruv tizimini yanada takomillashtirishga yordam beradi.

Yuqoridagilar asosida aytish mumkinki, O'zbekistonda menejment tizimini yanada rivojlantirish uchun nazariy bilimlar va amaliy tajribaning uyg'unligini ta'minlash muhim hisoblanadi.

## **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Abdullayev I. (2018). Zamonaviy boshqaruv tizimlari. Toshkent: «O'qituvchi» nashriyoti. Betlar: 125-132
2. Mamadaliev M., Saidova G. (2019). O'zbekiston Respublikasida boshqaruvning milliy modeli. Toshkent: «Fan» nashriyoti. Betlar: 45-56
3. Drucker P. (2008). Management: Tasks, Responsibilities, Practices. New York: Harper & Row. Betlar: 220-245
4. Mintzberg H. (1994). The Rise and Fall of Strategic Planning. New York: Free Press. Betlar: 72-80
5. Koontz H., Weihrich H. (2007). Essentials of Management: An International Perspective. New York: McGraw-Hill. Betlar: 120-135
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari (2021). 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. Betlar: 1-15
7. Mirziyoyev Sh. M. (2017). Innovatsion iqtisodiyotning rivojlanishi. Toshkent: O'zbekiston iqtisodiyoti va biznes universiteti. Betlar: 98-105.